“KO‘RIB CHIQILDI”
Jizzax shahar 1-son texnikumi
pedagogik kengashining 2025 yil
“29” 08 dagi №1-son bayonnomasi

“TASDIQLAYMAN”
Jizzax viloyati kasbiy ta’lim boshqarmasi
boshlig‘i v.v.b.
_____ B.O‘sarov
“29” 08 2025 yil

JIZZAX SHAHAR 1-SON TEXNIKUMINI 2025–2030 YILLARDA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI

(strategik reja)

Texnikumning faoliyat yo‘nalishlari:
Mahalliy ta’lim
Xalqaro ta’lim (Pearson, Buyuk Britaniya)
“Qurilish sohasi bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash” markazi

Jizzax – 2025

1. UMUMIY QOIDALAR VA NORMATIV-HUQUQIY ASOS

Mazkur strategiya Jizzax shahar 1-son texnikumi (keyingi o‘rinlarda – texnikum)ning 2025–2030 yillarda rivojlanishining maqsad va vazifalarini, ularni amalga oshirish mexanizmlarini, ijro muddatlari, mas’ul ijrochilar, zarur resurslar hamda natijalarni baholash ko‘rsatkichlarini belgilaydi. Strategiya texnikumning barcha tarkibiy bo‘linmalari (kafedralar, bo‘limlar, markazlar) yillik ish rejalarini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Strategiya quyidagi hujjatlar asosida ishlab chiqildi:

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020 yil 23 sentabr, O‘RQ-637-son);

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 oktabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 5 maydagi “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-76-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23 oktabrdagi “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-316-son qarori va “Kasbiy ta’lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-190-son Farmoni;

Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 6 avgustdagi 498-son qarori hamda Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligining kasbiy ta’lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazishda baholash mezonlari bo‘yicha indikatorlari (4-son buyruq, ro‘yxat raqami 3726).

Strategiya texnikumning 2025–2027 yillarga mo‘ljallangan strategik rejasi ijrosi tahlili hamda kasbiy ta’lim tashkilotlarining ilg‘or tajribasi asosida tayyorlandi va uning o‘rnini bosadi.

2. TEXNIKUM PASPORTI

To‘liq nomi	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Kasbiy ta’lim agentligi Jizzax shahar 1-son texnikumi.
Manzili	Jizzax shahar, Qaliya mahallasi, Beshyog‘och ko‘chasi 77-uy. Tel: 55-151-60-45. E-mail: jizzaxaqk 21@umail.uz.
Direktor	N.Tursunbayeva.
Faoliyat yo‘nalishlari	1. Mahalliy ta’lim – 9-sinf bazasida dual ta’lim shaklidagi ta’lim dasturlari; 2. Xalqaro ta’lim – Buyuk Britaniyaning Pearson dasturi bo‘yicha 4 ta yo‘nalish; 3. Texnikum qoshidagi “Qurilish sohasi bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash” markazi – Migratsiya agentligi buyurtmasi asosida xorijda (jumladan, Yevropa davlatlarida) ishlash uchun mutaxassislar tayyorlash.
Ta’lim dasturlari (2026–2027 o‘quv yili)	13 ta: o‘rta maxsus kasbiy ta’lim – 5 ta (shundan dual – 4 ta, sirtqi – 1 ta), boshlang‘ich kasbiy ta’lim – 8 ta
O‘quvchilar kontingenti	354 nafar (2026–2027 o‘quv yili, 13 ta ta’lim dasturi bo‘yicha).
Kafedralar	Ingliz tili; Umumta’lim fanlar; Maxsus fanlar.
Pedagog kadrlar	Asosiy shtatda 15 nafar o‘qituvchi, malaka toifasiga ega o‘qituvchilar ulushi – 20 % (2025 yil boshidagi holat).
Infratuzilma	Barcha o‘quv xonalari elektron doskalar va videokameralar bilan jihozlangan; IT markaz va internetga ulangan kompyuter xonasi mavjud.

3. STRATEGIK MAQSADLAR

1-maqsad. Ta’lim sifatini davlat ta’lim standartlari va xalqaro talablar darajasiga yetkazish, 2027 yilda kompleks davlat akkreditatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tish.

2-maqsad. Dual ta’lim va ish beruvchilar bilan integratsiyani kengaytirish orqali bitiruvchilar bandligini 2030 yilda kamida 90 % ga yetkazish.

3-maqsad. Pearson xalqaro ta’lim dasturlarini rivojlantirish, xorijiy hamkorlar bilan qo‘shma loyihalarni amalga oshirish.

4-maqsad. “Qurilish sohasi bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash” markazi orqali tartibli mehnat migratsiyasi uchun xalqaro talablarga mos kadrlar tayyorlash.

5-maqsad. Pedagog kadrlar salohiyati, raqamli va moddiy-texnik baza hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, o‘quvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash.

4. STRATEGIYANI AMALGA OSHIRISH BO‘YICHA HARAKATLAR REJASI

t/r	Vazifalar	Amaldagi holat (2025)	Amalga oshirish mexanizmi	Samaradorlik ko‘rsatkichi (natija)	Muddat	Mas’ullar	Imzo
I. TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH							
1.	Ta’lim sifatini ichki ta’minlash tizimini rasmiylashtirish (nizom, ichki baholash tartibi) va to‘liq joriy etish.	TSTBM lavozimi joriy etilgan, tizim shakllanmoqda	Ichki baholash tartibi tasdiqlanadi; yarim yillik va yillik monitoring; natijalar pedagogik kengashda muhokama qilinadi	Ichki baholash yiliga 2 marta; aniqlangan kamchiliklarning 100 % bartaraf etilishi	2025–2030	Direktor, TSTBM	
2.	Ishchi o‘quv reja va dasturlarni DTS, Milliy malaka ramkasi, kasbiy standartlar va ish beruvchilar talablari asosida yangilash.	Reja va dasturlar har yili ko‘rib chiqiladi	Ish beruvchilar ishtirokida yillik ekspertiza; o‘quv natijalarini (learning outcomes) aniq belgilash	Barcha dasturlar har yili yangilanadi va ish beruvchilar bilan kelishiladi	Har yili, avgustgacha	O‘IBDO‘, kafedra mudirlari	
3.	O‘quvchilar bilimini baholash tizimini o‘quv natijalariga moslashtirish, raqamli baholash va apellyatsiya tizimini yuritish.	Baholash an’anaviy shaklda, qisman elektron	Baholash tartibi va mezonlari ochiq e’lon qilinadi; LMS va EMIS PT orqali baholash	Baholarning 100 % elektron tizimda; shikoyatlar tahlili har semestrda	2025–2027	O‘IBDO‘, metodist	
4.	Ilg‘or pedagogik texnologiyalar, dars tahlili va o‘zaro tajriba almashish tizimini rivojlantirish.	Ochiq darslar o‘tkaziladi	Dars tahlili reja-grafigi, cheklistlar, master-klasslar, yillik tahliliy hisobot	Har bir pedagog yiliga kamida 2 ta ochiq dars; yillik tahliliy hisobot	2025–2030	O‘IBDO‘, metodist, kafedra mudirlari	
5.	O‘quv adabiyotlari, elektron resurslar va o‘qitish materiallari bilan ta’minlash, ARM fondini yangilash.	ARM fondi qisman eskirgan	Dasturlar kesimida ehtiyojni aniqlash; elektron kutubxona; o‘qituvchilar mualliflik qo‘llanmalari	Har bir fan bo‘yicha elektron resurslar 100 %; fond har yili kamida 10 % ga yangilanadi	2025–2030	O‘IBDO‘, ARM mudiri, bosh hisobchi	
II. MAHALLIY TA’LIM, DUAL TA’LIM VA ISH BERUVCHILAR BILAN INTEGRATSIYA							
6.	Hudud mehnat bozori va ish o‘rinlari prognozi ma’lumotlar bazasini shakllantirish.	Shahar hokimligi, bandlikka ko‘maklashish markazi va korxonalar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan	Har yili yaratiladigan ish o‘rinlari prognozi; qabul parametrlarini unga moslashtirish	Qabul parametrlari 100 % mehnat bozori prognoziga mos	Har yili, aprelgacha	KTBDO‘, O‘IBDO‘	

t/r	Vazifalar	Amaldagi holat (2025)	Amalga oshirish mexanizmi	Samaradorlik ko‘rsatkichi (natija)	Muddat	Mas’ullar	Imzo
7.	9-sinf bazasida dual ta`lim dasturlarini kengaytirish.	Dual ta`limda 4 ta dastur	Ish beruvchilar bilan uch tomonlama shartnomalar; korxonada o‘qitish ulushini oshirish; yangi dasturlarni litsenziyalash	Dual dasturlar soni: 2027 – 5 ta, 2030 – 8 ta	2025–2030	Direktor, KTBDO‘	
8.	Qabul rejasini to‘liq bajarish va kasbga yo‘naltirish ishlarini kuchaytirish.	Qabul rejasi 100 % bajarilgan	Maktablar bilan “Ochiq eshiklar kuni”, kasbga yo‘naltirish tadbirlari, ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ibot	Qabul rejasi har yili 100 %; har bir o‘ringa tanlov 1,5 nafardan kam emas	Har yili	O‘IBDO‘, YIBDO‘	
9.	Amaliyot bazalari va ish beruvchilar bilan hamkorlik shartnomalarini kengaytirish.	Asosiy dasturlar bo‘yicha shartnomalar mavjud	Har bir dastur bo‘yicha kamida 2 ta korxona bilan shartnoma; ustoz-shogird tizimi	Shartnomalar soni 2030 yilda kamida 30 ta	2025–2030	KTBDO‘, kafedra mudirlari	
10.	Karyera markazi faoliyati va bitiruvchilar bandligi monitoringini yuritish.	Karyera markazi jamoatchilik asosida tashkil etilgan	Bitiruvchilarning yagona ma’lumotlar bazasi; “Karyera kunlari”, bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkalari; ish beruvchilar so‘rovnomasi	Bitiruvchilar bandligi: 2026 – 75 %, 2028 – 85 %, 2030 – 90 %	2025–2030	KTBDO‘, karyera markazi	
11.	Yakuniy davlat attestatsiyasini ish beruvchilar ishtirokida va korxonalarda o‘tkazish.	YaDA komissiyalariga ish beruvchilar jalb etilmoqda	Ko‘rgazmali-amaliy imtihonlarni korxona maydonlarida o‘tkazish; mustaqil baholash	Komissiyalar raisining 100 % ish beruvchi vakili	2026–2030	O‘IBDO‘, KTBDO‘	
12.	O‘quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish.	Alohida tizim yo‘q	“Tadbirkorlik asoslari” to‘garagi, startap loyihalar tanlovi, mahallalar va tadbirkorlar bilan hamkorlik	Har yili kamida 5 ta o‘quvchi loyihasi	2026–2030	KTBDO‘, YIBDO‘	
III. XALQARO TA’LIM: PEARSON (BUYUK BRITANIYA) DASTURLARI VA XALQARO HAMKORLIK							
13.	Pearson dasturi bo‘yicha 4 ta yo‘nalishda ta’lim sifatini xalqaro talablar darajasida ta’minlash.	Pearson dasturi bo‘yicha 4 ta yo‘nalish faoliyat yuritadi	Pearson talablari bo‘yicha ichki verifikatsiya, standartlashtirish, tashqi sifat nazoratiga tayyorgarlik	Tashqi sifat nazorati natijalari ijobiy; o‘quvchilarning kamida 85 % xalqaro sertifikat oladi	2025–2030	O‘IBDO‘, xalqaro dasturlar koordinatori	
14.	Pearson dasturlari sonini va kontingentini kengaytirish.	4 ta yo‘nalish	Mehnat bozori talabi asosida yangi yo‘nalishlarni tanlash va litsenziyalash	Xalqaro yo‘nalishlar soni 2028 yilda 5 ta, 2030 yilda 6 ta	2027–2030	Direktor, xalqaro dasturlar koordinatori	

t/r	Vazifalar	Amaldagi holat (2025)	Amalga oshirish mexanizmi	Samaradorlik ko‘rsatkichi (natija)	Muddat	Mas’ullar	Imzo
15.	Pearson dasturlari pedagoglarini xalqaro sertifikatlash va ingliz tili darajasini oshirish.	Pedagoglar Pearson treninglaridan o‘tmoqda	Assessor va ichki verifikator treninglari; ingliz tili kurslari (B2 va undan yuqori)	Xalqaro dastur pedagoglarining 100 % Pearson treningidan o‘tgan; 70 % B2 darajasida	2025–2028	O‘IBDO‘, kadrlar inspektori, Ingliz tili kafedrasi	
16.	Xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik va qo‘shma ta’lim dasturlarini joriy etish.	Xorijiy hamkorlik boshlang‘ich bosqichda	Memorandumlar, pedagog va o‘quvchilar almashinuvi, onlayn qo‘shma darslar	2030 yilgacha kamida 3 ta xorijiy hamkor, 2 ta qo‘shma dastur	2026–2030	Direktor, KTBDO‘	
17.	O‘quvchilarni WorldSkills va boshqa respublika hamda xalqaro kasbiy musobaqalarga tayyorlash.	O‘quvchilar respublika tanlovlarida qatnashmoqda	Musobaqalarga tayyorlash to‘garaklari; g‘oliblar va ularni tayyorlagan pedagoglarni rag‘batlantirish	Har yili kamida 3 nafar respublika sovrindori; 2030 yilgacha xalqaro musobaqa ishtirokchisi	2025–2030	KTBDO‘, YIBDO‘	
IV. “QURILISH SOHASI BO‘YICHA MALAKALI MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH” MARKAZI							
18.	Markaz faoliyatini Migratsiya agentligi buyurtmasi asosida tizimli tashkil etish.	Markaz texnikum qoshida tashkil etilgan	Buyurtma bo‘yicha guruhlar shakllantirish; o‘quv dasturlarini xorijiy ish beruvchi talablariga moslashtirish	Migratsiya agentligi buyurtmasi har yili 100 % bajariladi	2025–2030	Direktor, markaz rahbari	
19.	Qurilish kasblari bo‘yicha o‘quv dasturlarini Yevropa standartlari va ish beruvchilar talablariga moslashtirish.	Dasturlar milliy talablar asosida	Xorijiy ish beruvchilar va hamkor agentliklar bilan dasturlarni kelishish; xavfsizlik (mehnat muhofazasi) modullarini kuchaytirish	Barcha dasturlar xorijiy ish beruvchilar bilan kelishilgan	2026–2027	Markaz rahbari, KTBDO‘	
20.	Tinglovchilarni xorijiy tillarga (nemis, ingliz va boshqa) o‘qitish va til sertifikatini olishga ko‘maklashish.	Til tayyorgarligi cheklangan	Qisqa muddatli til kurslari; xalqaro til imtihonlariga tayyorlash	Xorijga yuboriladigan tinglovchilarning kamida 90 % talab etilgan til sertifikatiga ega	2025–2030	Markaz rahbari, Ingliz tili kafedrasi	
21.	Markazning amaliy-ishlab chiqarish bazasini zamonaviy qurilish texnologiyalari bilan jihozlash.	Asosiy ustaxonalar mavjud	Zamonaviy qurilish poligoni va ustaxonalar; xorijiy standartdagi asbob-uskunalar	2028 yilgacha poligon to‘liq jihozlanadi	2025–2028	Direktor, KTBDO‘, bosh hisobchi	

t/r	Vazifalar	Amaldagi holat (2025)	Amalga oshirish mexanizmi	Samaradorlik ko‘rsatkichi (natija)	Muddat	Mas’ullar	Imzo
22.	Tinglovchilarning malakasini tasdiqlash va xorijda ishga joylashishini monitoring qilish.	Monitoring tizimi shakllantirilmoqda	Malakani baholash markazlarida sertifikatlash; ishga joylashganlar ma’lumotlar bazasi	Tayyorlanganlarning kamida 80 % xorijda ishga joylashadi	2025–2030	Markaz rahbari, karyera markazi	
V. PEDAGOG KADRLAR SALOHIYATINI OSHIRISH							
23.	O‘qituvchilarning malaka toifasini oshirish.	Asosiy shtatdagi 15 nafar o‘qituvchining 20 % malaka toifasiga ega	Malaka oshirish va attestatsiya reja-grafigi; toifasi yo‘q o‘qituvchilarni ustuvor yuborish	Toifali o‘qituvchilar ulushi: 2026 – 42 %, 2027 – 50 %, 2030 – 80 %	2025–2030	Direktor, kadrlar inspektori	
24.	Pedagoglarni korxonalarda stajirovkadan o‘tkazish.	Stajirovka tizimli emas	Har bir maxsus fan o‘qituvchisi va ustasi uchun 3 yilda kamida 1 marta stajirovka	Maxsus fan pedagoglarining 100 % stajirovkadan o‘tgan	2025–2030	KTBDO‘, kadrlar inspektori	
25.	Kadrlar yetishmovchiligini bartaraf etish va kadrlar zaxirasini shakllantirish.	Umumta’lim fanlar bo‘yicha kadrlar yetishmaydi	OTMlarga buyurtma; OTM professor-o‘qituvchilarini jalb qilish; kadrlar zaxirasi	Bo‘sh shtat birliklari 2027 yilgacha to‘liq to‘ldiriladi	2025–2027	Direktor, kadrlar inspektori	
26.	Pedagoglarning ilmiy-uslubiy salohiyatini oshirish (Jizzax davlat pedagogika universiteti bilan hamkorlik).	8 nafar o‘qituvchi ilmiy maqolalarga ega	OTM kafedra filiallari; maqola, qo‘llanma va o‘quv adabiyotlari tayyorlash; konferensiyalar	Ilmiy-uslubiy ishlarga ega pedagoglar 2030 yilda 20 nafar	2025–2030	O‘IBDO‘, metodist	
27.	Pedagoglar faoliyati samaradorligini baholash (reyting) va rag‘batlantirish tizimini joriy etish.	Tizim joriy etilmagan	KPI asosida yillik reyting; moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish nizomi	Reyting har yili e’lon qilinadi	2026–2030	Direktor, kadrlar inspektori, bosh hisobchi	
VI. O‘QUVCHILARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH, MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR VA YOSHLAR TARBIYASI							
28.	To‘garaklar (IT, kasbiy, til, sport, ijodiy) faoliyatini kengaytirish.	IT markaz va to‘garaklar faoliyat yuritadi	Yillik reja-grafik; to‘garak dasturlari; qamrov monitoringi	O‘quvchilarning to‘garaklarga qamrovi 2030 yilda 85 %	2025–2030	YIBDO‘	
29.	Psixologik xizmat va maslahat tizimini kuchaytirish.	Psixolog faoliyat yuritadi	Individual maslahatlar, treninglar, xavf guruhidagi o‘quvchilar bilan ishlash	Murojaat qilgan o‘quvchilarning 100 % qamrab olinadi	2025–2030	YIBDO‘, psixolog	
30.	Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash.	Ro‘yxatlar yuritiladi	Individual ta’lim trayektoriyalari; imtiyoz va moddiy yordam; iqtidorlilar uchun maxsus kurslar	Barcha toifadagi o‘quvchilar uchun individual reja	2025–2030	YIBDO‘, O‘IBDO‘	

t/r	Vazifalar	Amaldagi holat (2025)	Amalga oshirish mexanizmi	Samaradorlik ko‘rsatkichi (natija)	Muddat	Mas’ullar	Imzo
31.	Ma’naviy-ma’rifiy ishlar, huquqbuzarliklar profilaktikasi va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish.	Tadbirlar reja asosida o‘tkaziladi	Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va mahalla bilan hamkorlik; “Kelajak soati”; kitobxonlik tanlovlari; ota-onalar bilan ishlash	O‘quvchilar o‘rtasida huquqbuzarliklar sodir etilmasligi	2025–2030	YIBDO‘, yurist	
32.	Ta’lim xizmatlari sifati bo‘yicha o‘quvchilar va ota-onalar fikrini muntazam o‘rganish.	So‘rovnomalar epizodik	Yiliga 2 marta elektron so‘rovnoma; natijalar asosida chora-tadbirlar	Qoniqish darajasi 2030 yilda kamida 85 %	2025–2030	YIBDO‘, TSTBM	
33.	Sog‘lom turmush tarzi va ommaviy sportni rivojlantirish.	Sport to‘garaklari mavjud	Sport to‘garaklari, shahar va viloyat musobaqalarida ishtirok	O‘quvchilarning 60 % sport bilan muntazam shug‘ullanadi	2025–2030	YIBDO‘, jismoniy tarbiya rahbari	
VII. RAQAMLASHTIRISH VA RAQAMLI TA’LIM MUHITI							
34.	Barcha o‘quv xonalarini yuqori tezlikdagi internet bilan qamrab olish.	Bitta kompyuter xonasi internet bilan to‘liq ta’minlangan	Lokal tarmoq va Wi-Fi tizimi; internet tezligini oshirish	Internet qamrovi: 2026 – 60 %, 2027 – 100 %	2025–2027	Direktor, axborot tizimlari mas’uli, bosh hisobchi	
35.	EMIS PT, LMS va elektron jurnalni to‘liq joriy etish, Agentlik axborot tizimlari bilan integratsiya.	Tizimlar qisman qo‘llanilmoqda	Barcha dars jadvali, baholash, davomat va o‘quv materiallari elektron tizimda	Ma’lumotlarning 100 % elektron tizimda yuritiladi	2025–2027	O‘IBDO‘, axborot tizimlari mas’uli	
36.	Pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va elektron ta’lim resurslarini yaratish.	Elektron doskalardan foydalanilmoqda	Raqamli savodxonlik treninglari; video darslar va elektron kurslar bazasi	Har bir fan bo‘yicha elektron kurs; pedagoglarning 100 % trening o‘tgan	2025–2029	O‘IBDO‘, metodist	
VIII. MODDIY-TEXNIK BAZA, INFRATUZILMA VA INKLYUZIV MUHIT							
37.	Laboratoriya, ustaxona va simulyatsion xonalarni zamonaviy jihozlar bilan ta’minlash.	Asosiy jihozlar mavjud, ayrimlari eskirgan	Dasturlar kesimida jihozlarga ehtiyoj ro‘yxati; bosqichma-bosqich xarid; xavfsiz joylashtirish	Har bir dastur bo‘yicha jihozlanganlik 2028 yilda 100 %	2025–2028	Direktor, KTBDO‘, bosh hisobchi	
38.	Binolarni ta’mirlash, hududni obodonlashtirish va kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik.	Joriy ta’mir har yili amalga oshiriladi	Kapital ta’mirlash rejasi; qozonxona va kommunikatsiyalarni yangilash	O‘quv binolari to‘liq ta’mirlangan	2025–2030	Direktor, xo‘jalik mudiri, bosh hisobchi	
39.	Inklyuziv ta’lim uchun bino va xonalarni moslashtirish.	Qisman moslashtirilgan	Pandus, yo‘laklar, sanitariya xonalari; maxsus o‘quv materiallari	Asosiy o‘quv binosi 2027 yilgacha to‘liq moslashtiriladi	2025–2027	Xo‘jalik mudiri, O‘IBDO‘	

t/r	Vazifalar	Amaldagi holat (2025)	Amalga oshirish mexanizmi	Samaradorlik ko‘rsatkichi (natija)	Muddat	Mas’ullar	Imzo
40.	Amaliy mashg‘ulotlar uchun xomashyo va sarf materiallari bilan muntazam ta’minlash.	Byudjet mablag‘lari yetarli emas	Byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan xarid; ish beruvchilar ko‘magi	Amaliy mashg‘ulotlar 100 % materiallar bilan ta’minlanadi	2025–2030	KTBDO‘, bosh hisobchi	
IX. MOLIYAVIY BARQARORLIK VA BYUDJETDAN TASHQARI DAROMADLAR							
41.	Qisqa muddatli kasbiy va til kurslarini tashkil etish.	Qisqa kurslar rejalashtirilgan	Mavjud jihozlar asosida kurslar; tamomlaganlarga sertifikat	Kurslar soni: 2026 – 2 ta, 2028 – 4 ta, 2030 – 6 ta	2025–2030	KTBDO‘, markaz rahbari	
42.	Bo‘sh xonalarni “E-Auksion” orqali ijaraga berish va mol-mulkdan samarali foydalanish.	Ayrim xonalar ijaraga berilgan	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi orqali	Foydalanilmayotgan maydonlar qolmaydi	2025–2030	Direktor, bosh hisobchi	
43.	Grantlar, homiylik va xalqaro loyihalar mablag‘larini jalb etish.	Tizimli emas	Grant loyihalari tayyorlash; ish beruvchilar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik	2030 yilgacha kamida 3 ta grant loyihasi	2026–2030	Direktor, KTBDO‘	
44.	Moliyaviy resurslarni strategik maqsadlarga muvofiq rejalashtirish va ijrosini monitoring qilish.	Yillik smeta tuziladi	Yillik moliyaviy rejada ta’lim sifatiga yo‘naltirilgan xarajatlarni alohida belgilash; choraklik tahlil	Byudjetdan tashqari daromad har yili kamida 10 % ga o‘sadi	Har yili	Bosh hisobchi, direktor	
X. BOSHQARUV, OCHIQLIK VA STRATEGIYA MONITORINGI							
45.	Tarkibiy bo‘linmalar yillik ish rejalarini strategiya maqsadlariga muvofiq ishlab chiqish.	Bo‘linmalar yillik rejalarga ega	Har bir reja bandida strategiyaning tegishli maqsadiga havola	Barcha bo‘linmalar rejalari strategiya bilan uyg‘unlashtirilgan	Har yili, avgust	Direktor o‘rinbosarlari, kafedra mudirlari	
46.	Pedagogik (vasiylik) kengashi faoliyati samaradorligini oshirish.	Kengash reja asosida faoliyat yuritadi	Manfaatdor tomonlar vakillarini jalb etish; qarorlar ijrosi nazorati	Kengash qarorlarining 100 % ijrosi	2025–2030	Direktor	
47.	Strategiya ijrosini monitoring qilish, manfaatdor tomonlar fikri asosida yangilash va natijalarni jamoatchilikka e’lon qilish.	Monitoring tizimi joriy etilmoqda	Yarim yillik monitoring, yillik hisobot pedagogik kengashda; veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlarda e’lon	Yillik hisobot saytda e’lon qilinadi; strategiya har yili yangilanadi	Har yarim yil	TSTBM, direktor	

5. STRATEGIYANING ASOSIY SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARI (2025–2030)

Ko‘rsatkich	2025 (boshlang‘ich holat)	2026	2027	2028	2029	2030
Malaka toifasiga ega o‘qituvchilar ulushi, %	20	42	50	60	70	80
Bitiruvchilar bandligi, %	30	75	80	85	88	90
Dual ta’lim dasturlari soni	4	4	5	6	7	8
Pearson xalqaro yo‘nalishlari soni	4	4	4	5	5	6
Pearson o‘quvchilaridan xalqaro sertifikat olganlar, %	20	75	80	85	85	90
Migratsiya agentligi buyurtmasining bajarilishi, %	100	100	100	100	100	100
Xorijga yuborilganlardan ishga joylashganlar, %	25	70	75	80	80	85
Ish beruvchilar bilan hamkorlik shartnomalari soni	10	15	20	24	27	30
Internet bilan qamrab olingan o‘quv xonalari, %	50	60	100	100	100	100
Qisqa muddatli kurslar soni	1	2	3	4	5	6
To‘garaklarga qamrab olingan o‘quvchilar, %	50	65	70	75	80	85
Ta’lim xizmatlaridan qoniqish darajasi (so‘rovnoma), %	50	70	75	80	83	85
Ilmiy-uslubiy ishlarga ega pedagoglar, nafar	0	0	1	3	4	5
Byudjetdan tashqari daromad o‘sishi (o‘tgan yilga nisbatan), %	–	10	10	12	12	15

6. STRATEGIYANI RESURSLAR BILAN TA’MINLASH

Inson resurslari: shtatlar jadvali strategik maqsadlar asosida har yili qayta ko‘rib chiqiladi; xalqaro dasturlar koordinatori, karyera markazi, markaz rahbari va axborot tizimlari mas’uli vazifalari belgilanadi; pedagoglar malaka oshirish va stajirovka reja-grafigi asosida tayyorlanadi.

Moliyaviy resurslar: byudjet mablag‘lari, byudjetdan tashqari daromadlar (qisqa kurslar, pullik xizmatlar, ijara), Migratsiya agentligi buyurtmasi bo‘yicha mablag‘lar, homiylik va grantlar. Yillik xarajatlar smetasida har bir strategik maqsad uchun mablag‘lar alohida rejalashtiriladi.

Moddiy-texnik resurslar: o‘quv binolari, laboratoriya, ustaxonalar, qurilish poligoni, IT markaz va ARM; jihozlarga ehtiyoj har yili dasturlar kesimida aniqlanib, ustuvorlik asosida yangilanadi; amaliyot uchun ish beruvchilar bazalaridan foydalaniladi.

7. STRATEGIYA IJROSINI MONITORING QILISH, BAHOLASH VA OCHIQLIGINI TA'MINLASH

Strategiya ijrosi uchun umumiy mas'ul – texnikum direktori; monitoringni tashkil etish – ta'lim sifatini ta'minlash bosh mutaxassisi.

Har bir tarkibiy bo'linma o'z yillik ish rejasini strategiya maqsadlari asosida tuzadi va har chorakda ijro bo'yicha axborot beradi.

Strategiya ijrosi yarim yilda bir marta monitoring qilinadi, yillik natijalar pedagogik (vasiylik) kengashida muhokama qilinadi va Jizzax viloyati kasbiy ta'lim boshqarmasiga taqdim etiladi.

Pedagoglar, o'quvchilar, bitiruvchilar, ish beruvchilar va ota-onalar fikri yiliga kamida ikki marta so'rovnoma orqali o'rganiladi; takliflar asosida strategiya har yili yangilanadi.

Strategiya, uning yillik ijrosi va erishilgan natijalar texnikum veb-sayti va rasmiy ijtimoiy tarmoq sahifalarida muntazam e'lon qilinadi.

Ko'rsatkichlarga erishilmagan hollarda sabablari tahlil qilinib, tuzatuvchi chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi.

ISHLAB CHIQDI:

JIZZAX SHAHAR 1-SON TEXNIKUMI DIREKTORI

_____ N.TURSUNBAYEVA

2025 yil